



Xizmatlar sohasi

(dastlabki ma'lumotlar)

2018 yil yanvar-fevral

Raqamlar:

2018 yil yanvar-fevral oylarida xizmatlar ishlab chiqarish hajmi - **1390,4 mlrd. so'm**

Ishlab chiqarilgan bozor xizmatlarida:

Yirik korxonalar ulushi – **23,9 %**

Kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi – **16,8 %**

Yakka tartibdagi tadbirkorlarning ulushi – **59,3 %**

Hozirgi vaqtda xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi jamiyatning jadal rivojlanishini belgilab beruvchi mezonga aylandi. Xizmatlar ko'rsatish tizimini takomillashtirish va modernizatsiya qilish aholining turmush sifatini, investitsion muhitni, ishbilarmonlik muhitini yaxshilashga va tadbirkorlikni rivojlantirishga yordam beradi.

Viloyatda amalga oshirilayotgan islohatlar bozor xizmatlarining 5,9 % ga oshishini ta'minladi. 2018 yil yanvar-fevral oylarida xizmatlar ishlab chiqarish hajmi 1390,4 mlrd.so'mni tashkil etdi.


Xizmatlar tarkibida eng yuqori ulushni savdo xizmatlari 440,1 mlrd. so'm (jami xizmatlarning 31,6 %), transport xizmatlari 386,3 mlrd.so'm (27,8 %), moliyaviy xizmatlar 127,7 mlrd.so'm (9,2 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari 89,8 mlrd.so'm (6,5 %), shaxsiy xizmatlar 60,5 mlrd. so'm (4,3 %)ni tashkil etadi.



Xizmatlar sohasida xizmat hajmining oshishi bir qator omillarning ta'siri bilan izohlanadi, jumladan: bozorda yangi turdagi xizmatlarning paydo bo'lishi, masalan: kredit kartalari orqali to'lovlar, Internet savdo, yangi savdo markazlari mehmonxonalarining tashkil etilishi, ta'lim xizmatlarini kengaytirish, dam olish sohasidagi tanlovning kengayishi shular jumlasidandir.

Xizmatlar jamiyat hayotining muhim sohasi bo'lib, hayot darajasini oshirishning asosiy omili hisoblanadi. Bugungi kunda xizmat amaliyotida xizmat faoliyatini tashkillashtirishning o'ziga xos jihatlari va xususiyatlari belgilangan.


2018 yil yanvar-fevral oylarida xizmatlar tarkibi, % da



Xizmatlar tarkibida eng katta ulush savdo xizmatlari (jami xizmatlarning 31,6 %), transport xizmatlari (27,8 %), moliyaviy xizmatlari (9,2 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (6,5 %) hissasiga to'g'ri keldi. Eng kam ulush me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (0,9 %) va sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlari (1,4 %) da qayd etildi.

Jahon bozorining rivojlanish tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, axborot kommunikatsiya texnologiyalari sohasida innovatsiyalarni joriy etish va ulardan samarali foydalanish korxonalarida boshqaruv va texnologik jarayonlarning samaradorligini oshirishga, iqtisodiyotning turli sohaslarida tovarlar va xizmatlar uchun yangi bozorlarni yaratish va mavjudlarini kengaytirishga yordam beradi, pirovard natijada aholining turmush sifatini oshirishga erishiladi.

2018 yil yanvar-fevral oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, % da



Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari

Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar

Moliyaviy xizmatlar

Ta'lim sohasidagi xizmatlar

Transport xizmatlari

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar

Yashash va ovqatlanish xizmatlari

Shaxsiy xizmatlar

Savdo xizmatlari


Boshqa xizmatlar

Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar

Xizmatlar bo'yicha eng yuqori o'sish sur'atlari me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (148,1 %), moliyaviy xizmatlar (127,7 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (118,9 %), ta'lim sohasidagi xizmatlar (115,2 %), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (115,1 %) da kuzatildi.

Shu bilan birga, pul-kredit siyosatining samaradorligini oshirish, istiqbolli investitsiya loyihalarini kreditlashni kengaytirish, shuningdek, bank xizmatlari ko'lamini kengaytirish bo'yicha qabul qilingan chora-tadbirlar moliyaviy xizmatlar hajmini 27,7 % ga oshirish imkonini berdi.


2018 yil yanvar-fevral oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar ishlab chiqarish hajmi,
mlrd.so'm



Hisobot davrida eng yuqori bozor xizmatlari hajmi savdo xizmatlari (440,1 mlrd.so'm), transport xizmatlari (386,3 mlrd.so'm), moliyaviy xizmatlar (127,7 mlrd.so'm), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (89,8 mlrd.so'm) bo'yicha kuzatilmoqda.

2018 yil yanvar-fevral oylarida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan xizmatlar ishlab chiqarish
hajmi, ming so'mda





Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar - 377,2 ming.so'mni tashkil etib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 103,9 % ni tashkil etdi.

Viloyat statistika boshqarmasi Xizmatlar

sohasi statistikasi bo'limi

Mas'ul: A.Abdullayev

(71) 230-85-35